



**1940–1950-YILLARDA FARG‘ONA VA ANDIJON VILOYATLARIDA
ONALIK VA BOLALIKNI MUHOFAZA QILISH TARMOG‘INING
SHAKLLANISHIDAGI MUAMMOLAR
ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ СЕТИ ОХРАНЫ МАТЕРИНСТВА
И ДЕТСТВА В ФЕРГАНСКОЙ И АНДИЖАНСКОЙ ОБЛАСТЯХ В 1940-
1950 ГОДАХ
PROBLEMS IN THE FORMATION OF THE MATERNAL AND CHILD
HEALTH PROTECTION NETWORK IN THE FERGANA AND ANDIJAN
REGIONS IN 1940-1950**

Madaminov Ulug‘bek Muhammadjon o‘g‘li

University of Business and Science

Ijtimoiy gumanitar kafedrası

stajyor o‘qituvchisi.

ollayor1220@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada 1940-1950-yillarda Farg‘ona va Andijon viloyatlarida onalik va bolalikni muhofaza qilish tarmog‘ining shakllanish jarayoni va unga xos bo‘lgan tibbiy-ijtimoiy muammolar arxiv manbalari hamda ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilingan. Kadrlar taqchilligi, moddiy-texnik bazaning nochorligi va kasalliklar tarqalishining demografik oqibatlari ilmiy dalillar yordamida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: onalik, bolalik, muhofaza, urush, Farg‘ona, Andijon, tibbiyot, kadrlar, tug‘ruqxona, demografiya, qishloq, arxiv, taqchillik, kasallik, profilaktika.

Аннотация: В данной статье на основе архивных источников и научной литературы анализируется процесс формирования сети охраны материнства и детства в Ферганской и Андижанской областях в 1940–1950-е годы, а также присущие ему медико-социальные проблемы. С помощью научных фактов освещены дефицит кадров, слабость материально-технической базы и демографические последствия распространения заболеваний.

Ключевые слова: материнство, детство, охрана, война, Фергана, Андижан, медицина, кадры, родильный дом, демография, село, архив, дефицит, болезнь, профилактика.






Abstract: This article analyzes the formation process of the maternal and child health protection network in the Fergana and Andijan regions in the 1940s–1950s, as well as its inherent medical and social problems, based on archival sources and scientific literature. The shortage of personnel, the weakness of the material and technical base, and the demographic consequences of the spread of diseases are highlighted using scientific evidence.

Keywords: motherhood, childhood, protection, war, Fergana, Andijan, medicine, personnel, maternity hospital, demography, rural, archive, shortage, disease, prevention.

Kirish

Insoniyat tarixining eng og‘ir silsilalaridan biri bo‘lgan Ikkinchi jahon urushi va undan keyingi tiklanish yillari (1940-1950-yillar) ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida bo‘lgani kabi, sog‘liqni saqlash tizimida, xususan, onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish yo‘nalishida ham o‘ta murakkab davr bo‘ldi. O‘zbekiston, xususan, aholi eng zich joylashgan mintaqa – Farg‘ona vodiysining Farg‘ona va Andijon viloyatlarida ushbu yillarda demografik vaziyat va ijtimoiy-tibbiy ahvol keskinlashdi. Erkaklarning ommaviy ravishda frontga safarbar etilishi oqibatida qishloq xo‘jaligi va sanoatdagi barcha og‘ir mehnat yuklamasi xotin-qizlar, keksalar hamda o‘smirlar zimmasiga tushdi. Farg‘ona va Andijon viloyatlarining bepoyon paxta dalalarida hamda sanoat korxonalarida kunlik me‘yordan ortiq ishlash xotin-qizlar salomatligiga, onalik funksiyasiga va tabiiyki, yosh avlodning jismoniy rivojlanishiga jiddiy putur yetkazdi [1, 45-b.].

Onalik va bolalikni muhofaza qilish (OBMQ) tarmog‘i jamiyat salomatligining asosiy indikatorini hisoblanadi. O‘tgan asrning 40-yillari boshlariga kelib, O‘zbekistonda, jumladan vodiya bu tizim hali to‘laqonli shakllanib ulgurmagani, mavjud bo‘lgan qishloq tibbiyot punktlari, tug‘ruqxonalari va yaslilar moddiy jihatdan g‘oyat nochor ahvolda edi. Hukumat tomonidan qabul qilingan qator qarorlar, masalan, homilador ayollarni yengilroq mehnatga o‘tkazish, tug‘ruq ta‘tillari berish kabi qonuniy me‘yorlar ko‘p hollarda faqat qog‘ozda qolib ketdi. Sababi, urush yillaridagi "Hamma narsa front uchun" shiori ostida amalga oshirilgan siyosat inson omili, ayniqsa, onalar salomatligi masalasini ikkinchi darajaga tushirib qo‘ygan edi [2, 88-b.].





Ayni shu yillarda Fargʻona va Andijon viloyatlarida chaqaloqlar oʻlimi koʻrsatkichi yuqoriligicha qoldi. Bunga asosiy sabablar sifatida tugʻruq jarayonlarining koʻpincha uy sharoitida, sanitariya talablariga javob bermaydigan holatda malakasiz doya kampirlar tomonidan qabul qilinishi, homilador ayollarda anemiya (qamqonlik), bezgak va ovqat hazm qilish tizimi kasalliklarining avj olgani koʻrsatiladi. Garchand 1944-yil 8-iyulda Ittifoq miqyosida "Koʻp bolali va yolgʻiz onalarga davlat yordamini koʻpaytirish, onalik va bolalikni muhofaza qilishni kuchaytirish toʻgʻrisida"gi farmon qabul qilingan boʻlsa-da, joylarda bu farmonning ijrosini taʼminlash uchun yetarli resurslar – binolar, tibbiy uskunalar, dori-darmon, eng asosiysi, malakali pediatr va akusher-ginekolog kadrlar mavjud emas edi [3, 112-b.].

1940–1950-yillarda Fargʻona va Andijon viloyatlarida ushbu sohada qanday muammolar hukm surgani, qishloq xotin-qizlarining tibbiy xizmat bilan qamrab olinishi darajasi va sohani tiklash yoʻlida qilingan amaliy qadamlarni oʻrganish tarix fani uchun dolzarb ahamiyatga ega. Mazkur maqolada aynan shu jihatlar – OBMQ tarmogʻining shakllanishidagi qiyinchiliklar, kadrlar masalasi, moddiy taʼminot va epidemiologik vaziyat arxiv materiallari hamda mavjud ilmiy adabiyotlar asosida xolis ilmiy tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili

1940-1950-yillardagi Oʻzbekiston sogʻliqni saqlash tizimi, xususan onalar va bolalar muhofazasi muammolari tarixshunoslikda turli bosqichlarda turlicha yondashuvlar bilan oʻrganilgan. Sovet davri tarixshunosligida bu mavzu koʻproq mafkuraviy qoliqlar asosida, faqat davlatning gʻamxoʻrligi, "mislsiz yutuqlar" va raqamlardagi oʻsishlar fonida yoritilgan. Jumladan, U.A. Muqimov, S.Sh. Shamansurova kabi tibbiyot tarixchilari oʻz asarlarida urush yillarida va undan keyingi davrda bolalar muassasalari sonining ortgani, onalarga berilgan nafaqalar va davlat mukofotlari haqida keng maʼlumotlar berishgan. Biroq, ularning tadqiqotlarida tibbiy xizmat sifati, dori-darmon taqchilligi, onalar va goʻdaklar oʻlimi kabi salbiy statistik maʼlumotlar senzura sababli ochiq qilmagan [4, 117-b.]. Shuningdek, sovet adabiyotlarida shahar va qishloq aholisi oʻrtasidagi tibbiy xizmat sifatidagi katta tafovutlar xaspoʻshlab oʻtilgan.

Oʻzbekiston davlat mustaqilligiga erishgach, arxiv hujjatlarining tadqiqotchilar uchun ochilishi natijasida tarixiy haqiqat xolis va haqqoniy yoritila boshlandi. R.





Shamsutdinovning Ikkinchi jahon urushi yillariga bag'ishlangan ko'p jildli asarlarida Farg'ona vodiysi aholisi, jumladan, ayollar va bolalarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, ocharchilik, kasalliklar tarqalishi va front orqasidagi mashaqqatli mehnat sharoitlari aniq arxiv raqamlari asosida ko'rsatib berildi [5, 62-b.]. Tarixchi N. Maxmudovanning "O'zbekistonda sog'liqni saqlash tarixi" monografiyasida ham 1940-yillarda OBMQ tarmog'ining og'ir moddiy bazasi, ayniqsa malakali akusher-ginekolog va pediater shifokorlarning yetishmovchiligi masalalari alohida bobda chuqur tahlil qilingan [6, 184-b.].

Mahalliy darajada, xususan Farg'ona va Andijon viloyatlari misolida tarixchi va o'lkashunos olimlar tomonidan bir qator izlanishlar olib borilgan. A. Ataxanov o'z dissertatsiyasida Andijon viloyatida tibbiy kadrlar tayyorlash va tibbiyot muassasalari tarmog'ining rivojlanishini urushdan keyingi yillarda sog'liqni saqlashni qayta qurish kontekstida o'rgangan [7, 33-b.]. Uning ta'kidlashicha, qishloq joylarida kolxoz tug'ruqxonalarning tashkil etilishi ko'p hollarda faqat qog'ozda bo'lib, amalda ular zaruriy anjomlarsiz va isitish tizimisiz quruq binolardan iborat bo'lgan. Sh. Ziyodovning maqolalarida Farg'ona viloyatida epidemik kasalliklarning bolalar o'rtasida tarqalishi va bolalar poliklinikalarining faoliyatidagi jiddiy kamchiliklar tahlil qilingan [8, 91-b.].

Xorijiy tarixchilar orasida M. Kamp va P. Jons kabi olimlar Markaziy Osiyoda sovet davri gender siyosati va ayollar salomatligi masalalarini o'rganar ekan, paxta yakkahokimligining ayollar reproduktiv salomatligiga halokatli ta'sirini, davlatning iqtisodiy manfaatlari ayollar sog'lig'idan ustun qo'yilganligini ta'kidlashgan [9, 120-b.]. Yuqoridagi adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, garchand onalik va bolalikni muhofaza qilish umumiy tarixiy nuqtai nazardan o'rganilgan bo'lsa-da, bevosita 1940-1950-yillarda Farg'ona va Andijon viloyatlari misolida bu jarayondagi mavjud muammolar va qishloq xotin-qizlarining real tibbiy ahvoli maxsus yaxlit tadqiqot obyekti sifatida batafsil yoritilmagan.

Metodologiya

Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda tarix fani metodologiyasining asosiy tamoyillari hisoblangan xolislik, tarixiylik va tizimlilik prinsiplariga qat'iy amal qilindi. Voqea-hodisalarni o'rganish davomida xronologik ketma-ketlik, qiyosiy tahlil, statistik hamda muammoviy yondashuv metodlaridan keng foydalanildi. Xususan,





1940-yillarning boshi, urush yillari (1941-1945) va urushdan keyingi davrdagi (1946-1950) Fargʻona hamda Andijon viloyatlaridagi onalik va bolalikni muhofaza qilish koʻrsatkichlarini solishtirish orqali oʻsish yoki pasayish dinamikasi aniqlandi [10, 41-b.].

Tadqiqotning manbaviy bazasini Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi (OʻzR MDA), Fargʻona viloyati davlat arxivi (FVDA) hamda Andijon viloyati davlat arxivi (AVDA) fondlarida saqlanayotgan asl, shu paytgacha ilmiy oborotga toʻliq jalb etilmagan hujjatlar tashkil etdi. Jumladan, OʻzR MDAning "Oʻzbekiston SSR Sogʻliqni saqlash vazirligi"ga oid 837-fondi hujjatlari asosida hukumat tomonidan viloyatlardagi tugʻruqxonalar va yaslilar moddiy-texnik taʼminoti, kadrlarning shtat jadvallari, tekshiruv dalolatnomalari tahlil qilindi [11, 23-b.]. Hukumat qarorlarining joylardagi haqiqiy ijrosi arxiv hujjatlaridagi tanqidiy bayonnomalar orqali qiyoslandi.

Andijon viloyat davlat arxivining 135-fondi (Sogʻliqni saqlash boʻlimi yigʻma jildlari) hamda Fargʻona viloyat arxivining 412-fondi hujjatlaridan foydalanib, bevosita qishloq tibbiyot punktlaridagi akusherlik punktlarining ahvoli, onalar va bolalar oʻlimi sabablari boʻyicha mahalliy sogʻliqni saqlash boʻlimlarining yillik hisobotlari oʻrganildi [12, 14-b.]. Bu hujjatlar asosan tuman (shahar) kasalxonalarida bosh shifokorlarining viloyat rahbariyatiga yozgan maxfiy maʼlumotnomalari va statistik jadvallaridan iborat boʻlib, ulardagi miqdoriy va sifat koʻrsatkichlari tadqiqot natijalarining ishonchliligini taʼminladi.

Tarixiy jarayonlarni faqat davlat siyosati doirasidagina emas, balki oddiy aholi turmush tarzi va demografik ahvoli nuqtai nazaridan yoritish maqsadida ogʻzaki tarix unsurlari (xotiralar) va oʻsha davr matbuot materiallari (mahalliy gazetalar) ham tadqiqotga qisman jalb etildi. Bu orqali qarorlar va ularning insonlar taqdiriga taʼsiri oʻrtasidagi farq xolis baholandi [13, 56-b.]. Rasmga tushirish, tizimlashtirish, maʼlumotlarni guruhlash metodlari orqali yillar kesimida kasallanish va oʻlim holatlari jadval koʻrinishiga keltirilib, ilmiy xulosalar chiqarildi. Metodologiyaning asosiy maqsadi – quruq statistikani insoniylashtirish va tarixiy hodisalarning asl sabab-oqibat bogʻliqliklarini ochib berishdan iborat boʻldi.

Natijalar

Arxiv materiallari va ilmiy izlanishlar natijalari shuni koʻrsatadiki, 1940-yillarda Fargʻona va Andijon viloyatlarida OBMQ muassasalari tarmogʻi keskin moddiy va





kadrlar tanqisligi sharoitida faoliyat yuritgan. 1941-yilda boshlangan urush sohadagi shundoq ham zaif tizimni inqiroz yoqasiga olib keldi. Erkak shifokorlarning frontga ketishi natijasida akusherlik va bolalar kasalliklari bo'yicha mutaxassislar deyarli qolmadi. Farg'ona viloyati davlat arxivi hujjatlariga ko'ra, 1943-yilda butun viloyat bo'yicha atigi 8 nafar oliy ma'lumotli pediatr va 11 nafar akusher-ginekolog faoliyat ko'rsatgan bo'lib, ularning aksariyati shahar markazlarida band edi [14, 55-b.].

Qishloq joylarda tug'ruqlar, asosan, tibbiy bilimsiz doya kampirlar yordamida uy sharoitida qabul qilingan. Bu esa onalar o'limi va chaqaloqlarda qoqoq (qoqshol), sepsis kabi yiringli infeksiyalar orqali o'lim ko'rsatkichlarining yuqori bo'lishiga olib kelgan. Andijon viloyati sog'liqni saqlash bo'limining 1944-yildagi hisobotida qayd etilishicha, viloyatdagi 156 ta kolxozdan faqat 32 tasida maxsus "kolxoz tug'ruqxonalari" ochilgan bo'lib, ularning ham 20 dan ortig'ida na isitish tizimi, na kerakli karavot va ko'rpachalar bor edi. Dori-darmonlar yetishmovchiligi shu darajada ediki, yangi tug'ilgan chaqaloqlarning kindigini kesish va bog'lash uchun oddiy tibbiy spirt va steril bint o'rniga uy sharoitidagi vositalardan foydalanilgan [12, 41-b.].

Onalar salomatligiga ekin maydonlaridagi og'ir mehnat bevosita ta'sir ko'rsatdi. Paxta yig'im-terimi va chopiq mavsumlarida qishloq ayollari homiladorligining so'nggi oylarigacha dalada ishlashga majbur bo'lishgan. Buning oqibatida muddatidan oldin tug'uruqlar, bolaning kamvaznli bo'lib tug'ilishi va onalarda kamqonlik (anemiya) holatlari Farg'ona va Andijon qishloqlarida ommaviy tus oldi. O'zR MDA ma'lumotlari guvohlik berishicha, 1945-yilda Farg'ona viloyatida ro'yxatga olingan homilador ayollarning qariyb 65% ida og'ir anemiya va holsizlik kuzatilgan bo'lib, bu bevosita to'yib ovqatlanmaslik va og'ir jismoniy mehnat oqibati edi [11, 78-b.].

Urushdan keyingi yillarda (1946–1950) vaziyat asta-sekin izga tusha boshladi, ammo muammolar to'liq bartaraf etilmadi. Garchand "Qahramon ona", "Onalik shuhrati" kabi ordenlar ta'sis etilib, ko'p bolali onalarga nafaqalar tayinlangan bo'lsa ham, bu nafaqalar bolani to'liq oziq-ovqat bilan ta'minlashga yetmas edi. Bolalar o'rtasida o'pka yallig'lanishi (zotiljam), qizamiq, ich o'tkotar (dizenteriya) kasalliklari keng tarqalib turdi. 1948-yilda Andijon viloyatidagi bolalar poliklinikalarida o'tkazilgan tekshiruvlar shuni ko'rsatdiki, profilaktik emlash ishlari sifatsiz tashkil etilgan, tibbiyot hamshiralarining bilimi yetishmasligi sababli bolalarga noto'g'ri tashxis qo'yish holatlari ko'p kuzatilgan [7, 60-b.]. Natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki,





50-yillarning boshiga kelibgina vodiya bolalar poliklinikalari va shahar tugʻruq majmualarining alohida tizimi shakllana boshladi, ammo hududlar (shahar va qishloq) oʻrtasidagi sifat tafovuti saqlanib qoldi.

Muhokama

1940-1950-yillarda Fargʻona va Andijon viloyatlarida OBMQ tarmogʻidagi muammolarni muhokama qilar ekanmiz, avvalo, bu jarayonlarning sabablarini tahlil qilish zarur. Davlat qogʻozda ayollar va bolalar salomatligini ustuvor vazifa qilib belgilangani bilan, amalda iqtisodiyotni tiklash va paxta rejasini bajarish maqsadi inson salomatligidan ustun qoʻyildi. Hukumat qarorlaridagi meʼyorlar va joylardagi real hayot oʻrtasidagi tafovut juda katta edi. Fargʻona va Andijon kabi qishloq xoʻjaligiga ixtisoslashgan viloyatlarda ayollar tom maʼnoda arzon ishchi kuchiga aylantirilgani, ularga tibbiy xizmat koʻrsatish oʻrniga koʻproq mehnat qilish talab etilgani onalar oʻlimining asosiy omillaridan biridir [9, 134-b.].

Yana bir yirik muammo – kadrlar masalasi edi. Oʻsha davrda mahalliy oʻzbek ayollari orasida oliy maʼlumotli shifokorlar sanoqli boʻlgan. Markazdan yoʻllanma bilan kelgan yoki evakuatsiya qilingan rusiyzabon mutaxassislar esa mahalliy tilni va qishloq aholisining mentalitetini bilmasdi. Buning ustiga tumanlarda transport va aloqa vositalarining yoʻqligi tez tibbiy yordam koʻrsatish imkonini cheklagan. Andijon viloyatining chekka tumanlarida shifokorlar bemorlar huzuriga eshak yoxud ot aravada borganliklari, koʻpincha vaqtida yetib bora olmaganliklari haqida koʻplab arxiv bayonnomalari mavjud [15, 29-b.]. Bu holat aholining, ayniqsa qishloq ayollarining davlat tibbiyot muassasalariga boʻlgan ishonchini pasaytirib, ularni yana xalq tabobati yoki doyalarga murojaat qilishga undagan.

Tugʻruqxonalar va bolalar yaslilarining infratuzilmasi ham tanqidiy muhokamaga muhtoj. Kolxozlar tomonidan barpo etilgan "mavsumiy yaslilar" aksariyat hollarda bolalar salomatligini asrash uchun emas, balki ayollarni paxta dalasiga tezroq qaytarish vositasi sifatida ishlagan. Bu yaslilarda sanitariya qoidalari umuman yoʻq edi; bolalar koʻpincha pol oʻstiga toʻshalgan nam koʻrpachalarda yotqizilgan, issiq ovqat va sut yetishmovchiligi tufayli ularning immuniteti keskin pasayib ketgan. Fargʻonadagi baʼzi tuman yaslilarida bitta tarelka va qoshiqdan 4-5 bola navbat bilan ovqatlangani, infeksiyon kasalliklar (dizenteriya, skarlatina) shu sababli tez tarqalgani arxiv yozishmalarida qayd etilgan [8, 95-b.].





Urushdan keyingi tiklanish yillarida vaziyatning nisbatan o'nglanishini tibbiyot byudjetiga ajratilgan mablag'larning biroz oshishi hamda o'rta tibbiyot xodimlarini (hamshira va akusherkalarni) mahalliy yoshlar orasidan tayyorlash siyosatining faollashuvi bilan izohlash mumkin. Biroq, ta'minotning markazlashgan tizimi hududlarga dori-darmonlarni kechiktirib va o'ta oz miqdorda yuborar edi. Ayniqsa, antibiotiklarning taqchilligi chaqaloqlar va yosh bolalar o'limining oldini olishda asosiy to'siq bo'lib qolmoqda edi. Bularning barchasi 1940-1950 yillar davomida vodiyning tibbiy-ijtimoiy hayoti favqulodda chora-tadbirlar qamrovida, o'ta nochor sharoitda kun kechirganligini ko'rsatadi.

Xulosa

1940-1950-yillarda Farg'ona va Andijon viloyatlarida onalik va bolalikni muhofaza qilish tarmog'ining shakllanishi favqulodda og'ir tarixiy sharoitlarda, urush asoratlari va qishloq xo'jaligidagi ortiqcha ekspluatatsiya fonida kechdi. O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, hukumat tomonidan qabul qilingan qarorlar amaliyotda o'z tasdig'ini to'liq topmadi, onalar va bolalar salomatligi davlat iqtisodiy rejaları qurboniga aylandi.

Birinchiidan, mintaqada tug'ruqxonalar va yaslilar tarmog'i son jihatidan o'sgan bo'lsa-da, ularning moddiy-texnik holati va sanitariya sharoitlari qoniqarsiz darajada edi. Qishloq joylarida ochilgan muassasalar asosan ko'rgazmali va mavsumiy xususiyatga ega bo'lib, onalar hamda bolalar salomatligini saqlashda real natija bera olmadi. Ikkinchiidan, o'ta og'ir darajadagi kadrlar yetishmovchiligi tizimning eng nozik nuqtasi bo'ldi. Mahalliy akusher-ginekologlar va pediatrlar sonining kamligi, dori-darmon va zaruriy tibbiy vositalarning yo'qligi go'daklar va onalar o'limi ko'rsatkichlarining yuqoriligiga sabab bo'ldi. Ayollarning paxta maydonlarida tinimsiz, og'ir mehnatga jalb qilinishi ularning reproduktiv salomatligiga halokatli ta'sir ko'rsatib, kamqonlik va homila tushishi kabi muammolarni keltirib chiqardi.

Uchinchiidan, mavjud qiyinchiliklarga qaramay, 1950-yillarning boshlariga kelib OBMQ tarmog'ining kelajakdagi rivoji uchun ma'lum bir tayanch nuqtalari yaraldi. Mahalliy yoshlar orasidan o'rta tibbiyot xodimlarini tayyorlash kengaydi, hududlarda shahar va qishloq o'rtasidagi tibbiy xizmatlar borasidagi bo'shliqni to'ldirishga harakat qilindi. Xulosa qilib aytganda, bu davrda onalar va bolalar muhofazasi tizimi davlatning real yordamidan ko'ra, ko'proq fidoiy shifokorlarning mehnati va oddiy xotin-





qizlarning irodasi hisobiga jon saqlab qoldi. Bugungi kunda O‘zbekistonda onalar va bolalar salomatligiga qaratilayotgan yuksak e‘tiborning ahamiyatini tushunish uchun xuddi shu o‘tmishning og‘ir sahifalarini xolis o‘rganish va undan kerakli xulosalar chiqarish dolzarb vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Shamsutdinov R. O‘zbekiston tarixi: Urush va undan keyingi yillar. – Toshkent: Sharq, 2011. – 45-b.
2. Inoyatov S., Qurbonov A. O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimi tarixi (1917–1990). – Buxoro: Durdona, 2018. – 88-b.
3. Alimova D. O‘zbekistonda xotin-qizlar masalasi: tarixiy tajriba. – Toshkent: O‘zbekiston, 2004. – 112-b.
4. Muqimov U.A. O‘zbekiston sovet shifokorlarining Ulug‘ Vatan urushi yillaridagi jasorati. – Toshkent: Meditsina, 1978. – 117-b.
5. Shamsutdinov R. Ikkinchi jahon urushi va front tarixiga oid chizgilar. – Andijon: Hayot, 2020. – 62-b.
6. Maxmudova N. O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash tarixi. – Toshkent: Abu Ali ibn Sino, 1998. – 184-b.
7. Ataxanov A.S. Andijon mintaqasida tibbiy ta‘lim tarmog‘ining shakllanishi va rivojlanishi (1940-1990 yillar). Tarix fan. nom. dis. – Toshkent, 2008. – 33-b.
8. Ziyodov Sh. Farg‘ona vodiysida urush yillaridagi tibbiy vaziyat / O‘zbekiston tarixi jurnali, 2017, №4. – 91-b.
9. Kamp M. The New Woman in Uzbekistan: Islam, Modernity, and Unveiling under Communism. – Seattle: University of Washington Press, 2006. – 120-b.
10. G‘ulomov X. Tarixiy tadqiqot metodologiyasi. – Toshkent: Universitet, 2011. – 41-b.
11. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi (O‘zR MDA), 837-fond, 1-ro‘yxat, 512-yig‘ma jild. – 23-b.
12. Andijon viloyat davlat arxivi (AVDA), 135-fond, 2-ro‘yxat, 45-yig‘ma jild. – 14-b.





13. Rahimov M. Ikkinchi jahon urushi va Farg‘ona vodiysi: front orqasidagi qahramonliklar. – Farg‘ona: Farg‘ona nashriyoti, 2015. – 56-b.
14. Farg‘ona viloyat davlat arxivi (FVDA), 412-fond, 1-ro‘yxat, 98-yig‘ma jild. – 55-b.
15. Qosimov M. Andijonda xotin-qizlar harakati: tarix va bugun. – Andijon: Meros, 2001. – 29-b.

